

# **Havo kemasi bortida tug'ilgan chaqaloq haqidagi so'nggi yangiliklar**

**2023 28 Aprel**

Boeing 787 Dreamliner bortida chaqaloq dunyoga kelgani haqida xabar bergan edik, bola 12 200 metr balandlikda, Istanbulga qo'nishga 50 daqiqa qolganida tug'ilgan. Ma'lum bo'lishicha, chaqaloqning onasiga klinikadan ketishiga ruxsat berilgan, bola muddatidan oldin tug'ilgani uchun klinikada, shifokorlar nazorati ostida qolmoqda. «Uzbekistan Airways» AJ'ning Turkiyadagi vakili yosh ota-onalar bilan uchrashib, aviakompaniya nomidan esdalik sovg'a va guldasta taqdim etib, transport bilan ta'minladi. Bolaga Muhammad deb ism qo'yilgan. Uzbekistan Airways unga mustahkam sog'lik va hayotda o'zi tug'ilish baxtiga muvassar bo'lganidek yuqori cho'qqilarni zabt etishini tilaydi.